

# Germaniya ekspertlari bilan uchrashuv

Shu yilning 1 noyabr kuni O'zbekiston Republikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti Directori Vladimir Norov Germaniya Bundestagidagi «Germaniya - Markaziy Osiyo» parlament guruhi Raisi Manfred Grund boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi. Suhbat chog'ida respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar, shuningdek, O'zbekiston va Germaniya o'rtaqidagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Yevropa delegatsiyasining fikricha, O'zbekiston hukumatining mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va hamkor davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlari O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtaqidagi hamkorlikni har tomonlama kengaytirish uchun zamin yaratmoqda. Ularning fikriga ko'ra, rasmiy Toshkentning ochiq tashqi siyosati va Respublikada inson huquqlari va demokratik qadriyatlar sohasidagi ijobiy o'zgarishlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'- e'tiborini sezilarli darajada oshirdi.

Suhbat davomida Germaniya O'zbekistonning parlamenti va yetakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

